



SHIFOXONA QOIDALARI

Har bir bemorning davolash jarayonini xavfsiz davom ettirishi, shifoxona ichida muntazam va nazoratli muhit yaratilishi, tibbiyot xodimlarining yanada samarali va unumli ishlashi, gigiyena va tozalik qoidalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bemorlar va tashrif buyuruvchilarimiz uchun ba'zi tartiblar belgilangan.

1. Bemorlarni ularning yaqinlari tomonidan ko'rish uchun kelish vaqtlari haftaning dushanba-juma kunlari **kunduzgi soat 13:00 dan 14:00 gacha, kechki soat 19:00 dan 20:00 gacha**, dam olish kunlari va bayram kunlari esa **kunduzgi soat 09:30 dan 11:00 gacha, kechki soat 17:00 dan 20:00 gacha** belgilangan. Jarrohlik Bo'limlari va Reanimatsiya Bo'limlarida tashriflar maxsus qoidalar bilan belgilangan.

2. Bemor yoki tashrif buyuruvchi uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan holatlarda tashrif doktor ruxsatiga bog'liq.

3. Davlat muassasalarida va yopiq joylarda chekish taqiqlanganligi sababli, shifoxonamiz ichida mutlaqo chekilmasligi kerak.

4. Bemorlarimizning salomatligi (parhezli ovqatlanish, dori-oziq-ovqat o'zaro ta'siri va h.k.) sababli, shifoxonaga tashqaridan oziq-ovqat va ichimliklar doktor va hamshiraning xabardorligi ostida olib kelinishi kerak.

5. Shifoxonaga 10 yoshdan kichik bolalar tashrif buyuruvchi sifatida qabul qilinmaydi. Biroq, shifokorning xabardorligi ostida ruxsat berilishi mumkin.

6. Bemor yonida zarurat tug'ilganda faqat bitta bemor yaqini qolishi mumkin. Majburiy holatlarda ikkinchi yaqini uchun doktor ruxsati talab qilinadi.

7. Shifoxonamizda bo'lgan vaqtingizda qimmatbaho buyumlaringiz (oltin, pul va hokazo) ni saqlash sizning zimmangizdadir. Shu sababli, har qanday qimmatbaho buyumlaringizni avvalo o'z yaqinlaringizga topshirishingiz lozim. Yo'qolgan qimmatbaho buyumlaringiz uchun shifoxonamiz mas'ul emas.

8. Shifoxonada zarur hollarda foydalanish uchun rasmiy shaxsni tasdiqlovchi hujjatni (masalan, pasport yoki haydovchilik guvohnomasi) o'zingiz bilan olib keling.

9. Shifoxona faoliyati va tartibi bilan bog'liq har qanday savol va muammolaringiz uchun hamshirangizga murojaat qilishingiz mumkin.

10. Xizmatlarimiz yuzasidan fikr-mulohaza, taklif va mamnuniyatingizni Bemorlar huquqlari bo'limiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish orqali, fikr-taklif qutlari orqali yoki shifoxonamiz veb-sayti orqali ham yozma ravishda bildirish mumkin.

11. Keraksiz yonib turgan chiroqlar va ochiq qolgan jo'mraklarni yopishga e'tibor qaring.

12. Xonalarimizda mavjud bo'lgan mahsulotlardan ehtiyotkorlik bilan foydalaning.

13. Xonalarimiz va yo'laklarimizda joylashgan konditsionerlarni boshqarish tugmalaridan foydalanish uchun shifoxona xodimlaridan yordam so'rang.

14. Shifoxonamizga kelayotganingizda uyingizdan yotoq choyshab to'plamlarini olib kelmang. Bu ehtiyojlaringiz shifoxonamiz tomonidan ta'minlanadi.

15. Bemor va unga hamrohlik qiluvchilar bo'lim navbatchi hamshiralarining ruxsatisiz bo'limdan tashqariga chiqmasliklari shart.

16. Bemor xonalari va derazalardan pastga kir-kiyimlarni osmang, axlat tashlamang.

17. Tashqaridan elektr jihozlarini olib kirmang. Masalan: suv isitgichlar, soch quritgich (mobil telefon va quvvatlash moslamalari bundan mustasno)

18. Bemor xonalarini tozalash paytida, hamrohlik qiluvchilar tozalik xodimlariga halaqit bermasliklari zarur.

19. Bemorlar xonasidagi deraza oldiga buyumlaringizni qo'ymang. Buyumlaringizni xonangizdagi shaxsiy shkaflaringizda saqlang.

20. Har bir hamroh hamrohlik guvohnomasiga ega bo'lishi va uni xodimlar ko'rishiga mumkin bo'lgan tarzda taqib yurishi kerak.

21. Bemorlar xonasidagi hammom va yuvingichlarni toza ishlating.

22. Tibbiyot xodimlarimiz sizdan ushbu qoidalariga rioya qilishingizni so'raganida, alohida e'tibor berishingizni chin dildan iltimos qilaman, e'tibor va qo'llab-quvvatlashingiz uchun tashakkur bildiraman.

**SHIFOXONA HAMMAMIZNIKI.
SALOMATLIGIMIZ VA XAVFSIZLIGIMIZ UCHUN
QOIDALARGA HAMMA BIRGALIKDA RIOYA QILAYLIK.**

Direktor